UO‘K 821.512.133

# ABDULLA QODIRIY FALSAFASI
(uchinchi maqola)

**D.H. Quronov**

*Maqolada “O‘tgan kunlar” romanidagi badiiy falsafiy konsepsiya tadqiq etilgan. Romanda markaziy o‘rin tutuvchi falsafiy muammolardan biri umum manfaati va shaxsiy manfaatning uyg‘unligi masalasidir. Mazkur muammo o‘zaro o‘xshatish-zidlash, to‘ldirish yo aniqlashtirish munosabatlariga kirishuvchi bir qator obrazlar va epizodlar tahlilida ochib berilgan. Roman falsafiy mohiyatini ifoda etishda Yusufbek hoji va Azizbek, Kumush va Xushro‘y obrazlarini kompozitsion jihatdan parallel qo‘yishning ahamiyati ko‘rsatilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *kompozitsion tafakkur, kontrast usuli, zidlash, qiyoslash, o‘xshatish, to‘ldirish.*

*В статье исследуется художественно-философская концепция романа А.Кадыри «Минувшие дни». Одной из центральных философских проблем, поставленных в романе, является вопрос гармонисеского соотношения общественного и личного интересов. Эта проблема выявляется при анализе ряда образов и эпизодов, вступающих между собой в отношения сравнения, дополнения или уточнения. Выявлена роль и значение композиционного сопоставления образов Юсуфбека хаджи и Азизбека, Кумуша и Хушроя в выражении философской сути романа.*

**Ключевые слова**: *композиционное мышление, метод контраста, противопоставление, сравнение, сопоставление, дополнение.*

Qodiriyning “O‘tgan kunlar” romanida Yusufbek hojining, adibning, umuman, sog‘lom fikr egasining ko‘zi bilan qaraganda, Azizbek – manfur kimsa, chunki u manfaati shaxsiyasiga – mutlaq hokimiyatga umum manfaatini bayroq qilib intiladi, shu maqsadi yo‘lida o‘zgalar manfaatini toptash, begunoh qon to‘kish, minglab oilalarni xonavayron qilishdan toymaydi. Yuzaki qaralsa*,“esimni tanig‘animdan beri amal demay, mansab demay, faqat shu musulmonlar manfaatini ko‘zlab keldim”, “bu soqol shu el qayg‘usida oqardi”* [1. B. 319] deguvchi Yusufbek hoji obrazi Azizbekning **mutlaq antipodi** o‘laroq gavdalantirilgandek, adib birmuncha primitiv “oq – qora” sxemasi asosida fikrlagandek ko‘rinadi. Aslida esa bunday emas, u inson amallarining “ichki dvigateli” bo‘lmish shaxsiy manfaatni inkor qilish fikridan mutlaqo yiroq, zero, mabodo shunday qilsa, keyincha ochiq yuz bilan “aynan men yozganchadir” deyolmasligini yaxshi anglaydi. Axir, Yusufbek hoji Azizbekning mushoviri, shu choqqacha uning yonida yurib zulmkorligiyu adolatsizligiga ko‘p guvoh bo‘lgan – chidab kelgan, hech isyon qilgan emas. Nega endi isyon qilyapti? Uning qarorini faqat “pichoq suyakka etgani” bilan izohlasa bo‘ladimi? Bizningcha, yo‘q. Bunga amin bo‘lish uchun Yusufbek hoji ongida isyon qarorining yetilish jarayonini sinchiklab kuzatish lozim bo‘ladi.

Yusufbek hoji Marg‘ilonda Otabekning qamalishi xabarini Toshkent qamalining ellik birinchi kuni eshitadi. Xo‘jasining mavqeyiga juda katta baho berganidan Hasanali “Otabekning ishini og‘ir, deb o‘ylamassiz?” deb so‘raydi. Ya’ni bu savoli uning Otabekka qo‘yilgan ayblov – *siyosiy ayblov* nechog‘li mudhish ekanligini oxirigacha anglamaganini ko‘rsatadi. Aksincha, Yusufbek hoji buni juda teran tushunadi, shuning uchun “*Ul javob bergali ham qo‘rqar edi. Uningcha ish juda nozik, g‘oyatda qo‘rqunch edi. Chunki Marg‘ilon zindonida yotguchi qipchoq dushmani bo‘lg‘an Azizbek otalig‘ining o‘g‘li edi. Toshkandning isyon chiqarg‘an bir zamonida Otabekdek bir yigitning Marg‘ilonda qanday gunoh bilan bo‘lsa-bo‘lsin ushlanishi har jihatdan ham mudhish edi*”. Hojining ahvoli-ruhiyasini tushunish qiyin emas: *“o‘g‘liga hujum qilg‘an bu falokatning tadbiridan aqli ojiz qoldi, miyasi ishlashdan to‘xtadi va shundan so‘ng – “Parvardigoro, keksaygan kunlarimda dog‘ini ko‘rsatma” dedi va ko‘z yoshlari bilan soqolini yuvdi*” [1. B. 89]. Hasanaliga*“zinhor uning qamalg‘anini onasi bilmasin”* deb tayinlagan Yusufbek hojining keyingi taqriban yigirma kunlar tuni bilan mijja qoqmay, ojizligiyu chorasizlikdan to‘lg‘anib chiqqani shundoq ham ayon, shu bois adib buning tafsilotlariga ortiqcha to‘xtalib o‘tirmaydi – yigirma kunlar o‘tib o‘rdaga chaqirtirilgan bechora otaning parishon holini tasvirlash bilan cheklanadi. Xayoli tun-kun shu tashvish bilan bandligidan hoji Azizbekning pistoqi mulozamatini sezmaydi, sababini o‘ylamaydi, zero: *“Bu favqulodda navozish sababini o‘ylamoqqa hojining vaqti yo‘q, chunki o‘zining qayg‘usi o‘ylashqa, fikrlashqa yetar-*

*likdir. Ko‘zining oqu qorasi bo‘lg‘an Otabekning holi nima kechti, qorong‘i zindonlarda, rutubatlik, zax yer ostlarida ochlikdan, tashnalikdan, sovuqlikdan aziz ko‘kragini yerga berib jon berdimikin? Zolim beklar, qonxo‘r hokimlar, rahmsiz jallodlar, mash’um dorlar va qo‘rqoq xalqlar orasida keksa otasini, mushtipar onasini ko‘ralmay dunyodan ketdimikin?”* [1. B. 105]. Yolg‘izgina farzandi boshiga kelgan o‘lim xavfi bir tomondan, chorasizlik iztirobi yana bir tomondan iskanjaga olgan hojiga “*ertadan boshlab yurtka o‘ttiz ikki tangadan soliq sochish*” amri berildi. Teran fikrli inson sifatida Yusufbek hoji bunga qarshilik qilishga urinadi – befoyda. Ehtimol, o‘g‘lining Marg‘ilonda qamalishi o‘rtaga tushmaganida, hoji ilgarigidek sabrda bardavom bo‘larmidi?! Ha, katta ehtimol bilan shunday! Axir, shu choqqacha ham – mayli norozilanib bo‘lsin, mayli yig‘lab-siqtab bo‘lsindir – itoat qilib, bajarib kelgan! Faqat endi shunday vaziyat yuzaga kelib turibdiki, xonlik foydasiga ko‘tarilgan isyon – Otabekni qutqarishning yagona yo‘li: Yusufbek hoji xalqni isyonga ko‘taradi...

Yo‘q, havotirga o‘rin yo‘q, bu yo‘sin talqin ham Yusufbek hojining “ijobiy”ligiga putur yetkazmaydi. Zero, uni faqat o‘z manfaatini ko‘zlab xalqni qo‘zg‘adi deyish insofdan emas. Chunki bu o‘rinda, avvalo, shaxsiy manfaat bilan el manfaati bir-biriga mos tushdi, ikkinchidan, soliq solinishi – so‘nggi tomchi, xolos, ya’ni isyon uchun obyektiv sharoit yetilib bo‘lgan. Mabodo, shu sharoit yetilmagani holda hoji xalqni qo‘zg‘aganida, u o‘z manfaatinigina ko‘zlagan, shaxsiy maqsadiga erishish uchun elni vosita qilgan bo‘lur ediki, Azizbekdan hech farqi qolmasdi...

Adib falsafasiga ko‘ra, insonni harakatlantiruvchi kuch – manfaat, alohida shaxslar manfaatidan guruhiy (qipchoqlar, qorachoponlar) manfaat tarkib topganidek, ulardan milliy (Yusufbek hoji va Otabek o‘yidagi xalq) manfaatlar, milliy manfaatlardan umumbashariy manfaat kelib chiqadi – tizim yuzaga keladi. Tizim unsurlarining bir-biri bilan uzviy bog‘liq va ayni choqda ma’lum ziddiyatda turishi tabiiyki, uning uchun normal yashash sharti – unsurlarining o‘zaro uyg‘unlikda, murosada yashashi. Ya’ni shaxsiy manfaat boshqa shaxslar manfaatidan ham, umum manfaatidan ham ustun qo‘yilmasligi (ayni paytda, umum manfaatining shaxs manfaatini inkor etmasligi), mavjud ziddiyatlar esa murosa yo‘li bilan oqilona hal qilib borilishi lozim. Aks holda... Adib xuddi shu narsani, ya’ni Azizbekning shaxsiy manfaatni ustun qo‘ygani bois Toshkent ahli boshiga tushgan sho‘rishlar yoxud birda qorachopon, birda qipchoq manfaatining ustun qo‘yilganidan har ikki el boshiga kelgan kulfatlarni qalamga olganki, bular biz uchun IBRATdir.

Hamonki gap manfaat haqida borarkan, roman badiiy falsafasini ifodalashda muhim o‘rin tutuvchi shaxsiy manfaatlar to‘qnashuvi talqiniga alohida to‘xtalish lozim. Tabiiyki, bu muammo ham o‘zaro o‘xshatish-zidlash, to‘ldirish yo aniqlashtirish munosabatlariga kirishuvchi bir qator obrazlar, epizodlar va syujet motivlari asosida talqin etilgan. Albatta, bundagi birinchilik “otasi marhumdan “O‘tkan kunlar” hikoyalarini necha qaytalab eshitganida” adibni zeriktiradigan bir joyi – “kundash janjali”yu “g‘idi-bidi”lariga tegishlidir.

Avvalo, romanda kundoshlar ziddiyatini “yor uchun kurash” motivining bir ko‘rinishi sifatida qarash kerakligini ta’kidlash kerak. Shu jihatdan qaralsa, “Otabek – Homid”, “Kumush – Zaynab”, “Xushro‘y – kundoshi” ziddiyatlari bitta vertikal qatordan joy olib, o‘zaro paradigmatik aloqaga kirishadi. Qo‘yilgan muammo nuqtayi nazaridan shu silsiladagi “Kumush – Zaynab” halqasi markaziy o‘rinni egallaydi, gapni uning ichki aloqalaridan boshlaymiz.

Shaxsiy manfaat kishini “meniki” va “menga” hukmlari (psixologik ustanovkalar)ga muvofiq harakatlantiradi. Shu jihatdan qaralsa, “Kumush – Zaynab” ziddiyatida tomonlarning boshlang‘ich holati bir-biridan jiddiy farqlanadi. Otabekka suyukli va yagona mankuha bo‘lmish Kumush uni “meniki” deb bilgan; unga ikkinchi xotin qilib uzatilayotganidan xabardor Zaynab esa istasa-istamasa “bizniki” deyishga majbur. Mazkur vaziyatda kundoshlar mojarosining Kumushdan boshlanishi mantiqan to‘g‘ri bo‘ladi. Biroq shunisi borki, “Kumush – Zaynab” konflikti rivojida tashabbus Kumush tomonida deganimizga aksar “Axir, Otabekning uylanishiga uning o‘zi rozilik bergan-ku?!” qabilida e’tiroz qilishadi. Sababi, muallifning Kumushga badiiy simpatiyasi o‘quvchiga ham yuqqan – xuddi Otabegu Yusufbek hojilar singari uning timsolida bir farishtani ko‘rishga moyil. Holbuki, muallif, Kumushni har qancha suymasin (ya’ni badiiy simpatiyasini yengib), baribir hayot haqiqatiga sodiq qoladi. Jumladan, o‘sha ikkinchi uylanishga rozilik berish sahnasida. Otabek “*itobomiz so‘zlar, achchig‘ xitoblar*” kutgan bir vaqtda, aksincha, Kumush unga dalda berish payida bo‘ladi. Albatta, buni Otabek ham tegishicha qadrlaydi, ko‘nglida suyuklisining ko‘z yoshlari uchun aybdorlik hissi yanada kuchayib, uning rizoligi va xursandligi uchun “*ota-ona gunohiga tavba qilishg‘a hozir” bir holga keladi:*

*“– Yig‘latg‘an men emasmi?*

*– Kitobni nega yopdingiz? Ochib o‘qung, men eshitay.*

*– Ota-ona rizolig‘ini bir tomchi ko‘z yoshingizga arzitdimmi?*

*– Men rozi, men ko‘ndim, – dedi daf’atan Kumush, bu so‘zni nimadandir qo‘rqg‘andek shoshib aytdi.*

*– Ko‘ndingiz... nega, a?*

*Otabek hayrat va taajjub ichida edi.*

– Negaki, – dedi Kumush, – men sizga ishonaman...

– Shuning uchun...

– Shuning uchun ko‘ndim...

– Ko‘nglingiz farishtalar ko‘nglidek” [1. B. 151].

Yaxshilab quloq tutilsa, Otabekning “*arzitdimmi?*” so‘rog‘i ohanglari orasida “*arzitmasligim kerak edi*” degan zaifgina pushaymon ohangi ham eshitiladi. Zotan, shuni eshitgani uchun ham Kumush “*men rozi, men ko‘ndim*” deya shoshadi – Otabekning o‘yidagini tiliga chiqarmasligini istaydi, zero, fikri so‘zga do‘ngudek bo‘lsa, qaytib olishi qiyin bo‘lishini yaxshi anglaydi. Zotan, rizolik ifodasi bo‘lmish ikkitagina jumlani “*nimadandir qo‘rqib, shoshib aytgani*”ning boisi ham asli shunda – unga Otabekni uylanishga ko‘ndirish vazifasi yuklangan, ya’ni u majburiyat ostida o‘zi kabi majburiyat ostidagi odam bilan so‘zlashmoqda. Sirasi, Kumush butun iroda kuchini jamlab shu ikkitagina jumlani chin dildan aytayotgandek qilib aytish uchungina kirgan. Agar Kumush “chin dildan”, – ya’ni ota-onasining zug‘umi bilangina emas, vaziyat taqozosini “tushungan” holda aytayotganiga ishontira olmasa, yurak amriga muvofiq-u, ota-ona ra’yiga qarshi borgan bo‘ladi. Yo‘q, Kumush ota-ona ra’yiga qarshi bormaydi – zimmasiga yuklangan vazifani ortig‘i bilan uddalaydi, shunchalarki, chippa-chin ishongan Otabek nazdida uning ko‘ngli “*farishtalar ko‘nglidek*”. Xo‘p, Otabekning ishongani shunchaki soddaligidan emas, ko‘proq ayni paytda ishonishni juda-juda istaganidan ekani haqiqatga yaqinroq hamdir. Biroq, nima bo‘lganda ham, Kumush ota-ona istagini amalga oshirdi: Otabek ham, soddadilroq o‘quvchi ham “uning o‘zi rozi” degan ishonchda sobit qoldi. Holbuki, Kumush vazifa bajardi xolos, tilida rozilik bergani bilan hech qachon – to umrining so‘ngiga qadar ham rozi bo‘lmadi: jon berar oldida “*taloq” so‘zini eshitkan Kumushning ko‘zi yarq etib ochilib, yana yumilgani”*ni aytish bilan adib ayni shuni ta’kidlaydi.

Aslida-ku, Kumushning roziligi tildagina ekanligi ko‘p o‘tmasidanoq oshkor etiladi. Adib charlarni kutib uzoqroq qolib ketgan Otabekni to‘rt ko‘z bo‘lib kutayotgan Kumushning ruhiy holatini tasvirlaganida buni yorqin bir chizgi bilan ifodalab qo‘yadi. Ha, o‘sha mashhur detal nazarda tutilyapti: yorini kutib olish uchun yasanib olgan Kumush oynadagi aksini obdon tomosha qilib-tekshirib, qanoat hosil qilgach, ko‘zgu yonidan jo‘narkan, *“...chiroylik bo‘lsa ham menikidek xoli yo‘qdir”, deb ko‘nglidan kechirdi”.* Ya’ni Kumush kundoshlikni boshlaboq yubordi – o‘zini hali ko‘rmagan-tanimagan kundoshi bilan qiyoslab, raqobatga kirishdi va yana bir muhim nuqta – u qiyosda o‘zini beshak ustun qo‘yadi. Kumushdagi ***ustunlik hissi*** Zaynab bilan ziddiyatida hamisha ustuvorki, bu uning Egosini quvvatlantirib, *haqlik illyuziyasi*ni hosil qiladi. To‘g‘ri, ustunlik hissi kaltaklangan o‘rinlar ham bor, muhimi, ular Kumush shu hisni ochiqchasiga namoyon etgan epizodlardan keyin albatta keladi: 1) o‘zini ko‘zguga solishi epizodi ortidanoq taloq xati olishi; 2) so‘z o‘yini qilib kundoshini Otabek nazdida tuproqqa qorishtirganidan keyin ko‘p ham o‘tmay keluvchi, Zaynab mohirona sahnalashtirgan “baxtiyor er-xotin” epizodi. Ilgariroq aytdik, mohiyatan o‘xshash holatlar takrorlanayotgan ekan, nimadir urg‘ulanayotgan chiqadi. Fikrimizcha, adib Kumushdagi *haddan oshish* holatini va buning jazosiz qolmasligini ta’kidlaydi: *har kim haddini – insonlik haddini bilmog‘i kerak, aks holda jazo topmog‘i muqarrar* degan g‘oyani ilgari suradi. Zotan, Zaynab bilan ziddiyatida Kumushning haddan oshishi *“men undan ustunman” – “men haqliman” – “u bilan hisoblashishim shart emas”* qolipida rivojlandi va fojiaga olib keldi. Darvoqe, bundagi ikkinchi halqa sharhlanmay qoldi, shunga qaytsak.

Yuqorida aytdik, Kumushdagi ustunlik hissi (“men undan go‘zalllikda, latofatda, aqlu farosatda... ustunman”)dan haqlilik illyuziyasi (“Otabekka men munosib, men haqliman”) o‘sib chiqadi. Ongida qat’iy ishonchga aylangan shu chala haqiqat uning nazdida keyingi xatti-harakatlarini oqlaydi, uning dasturulamaliga aylanadi. Dushmanlaridan o‘chini oliboq Toshkentga ketib qolgan Otabekka yozgan maktubida Kumush aytadiki: “*o‘ch qaytib, men ham ko‘chadan haydalmasam edi, degan xavf hamisha ko‘nglimda. Agar xudo yarlaqab eshikingizda o‘rinlashib olsam, uyog‘ini o‘zim bilar edim...*” [1. B. 301] Oxirgi gapni o‘z oldiga aniq maqsad qo‘ygan va unga erishish uchun nima qilishi kerakligini ham loaqal umumiy tarzda biladigan odam aytayotganini anglash qiyin emas. Zotan, Toshkentga kelgan ilk kunidanoq Kumush shu maqsad yo‘lida harakatni boshladi ham. Uning Otabek bilan “ovloqdagi” Hasanali uyushtirgan ilk uchrashuvini eslang:

*“Kumush kulgi aralash ko‘ziga yosh oldi.*

*– Siz... qochqoqsiz, – dedi.*

*– Siz...*

*– Men?*

*– Siz quvloqsiz.*

*– Ajab qilaman, – dedi Kumush va shapalog‘i bilan erining yuziga sekingina urib qo‘ydi.*

*– Bu yoqqa ham...*

*– U yoqqa Zaynab ursin.*

*– Zaynabning... urishka haqqi yo‘q.*

*Kumushning ko‘zida haligacha ko‘rilmagan bir shodliq o‘ynadi”* [1. B. 324].

Bu o‘rinda Kumush shunchaki sog‘ingan yoriga erkalik qilayotgani yo‘q, o‘z oldiga qo‘yilgan maqsadga erishish imkoniyatlarini chamalab boqyapti – “razvedka” qilyapti. Zero, tug‘ma oqila emasmi,

sinalmagan otning sirtidan o‘tib bo‘lmasligini yaxshi biladi – Otabekni tekshirib olishi, ko‘ngliga qo‘l solib ko‘rishi zarur. Ustalik shunchalarki, bu tekshiruvini Otabekka aslo sezdirmasdan, go‘yo Zaynabga “adolat” qilayotgan kabi ko‘rinib amallaydi. Ya’ni mabodo Otabek boshqa fikrda bo‘lsa, to uni “pishirib-yetiltirgunicha” Kumush “adolat” tomonini o‘ylagan bo‘lib qolaveradi. Sinovi o‘zi ich-ichidan istagan natijani berdi – Zaynab Otabekning ko‘ngliga kirolgan emas, bas, rejasini amalga oshirishida uning o‘ziga hamkor, hech bo‘lmaganda xayrixoh bo‘lishiga ishonch hosil qildi, shuning uchun ko‘zida umuman shodlik emas, “*haligacha ko‘rilmagan bir shodliq*” o‘ynaydi. Ayni shu ishonchdan quvvat olib kelgan kuni adog‘idayoq so‘z o‘yini bilan Otabekning ko‘z oldida Zaynabni kalaka qildi – kundoshining yuziga undan “*albatta katta*” ekanligini urg‘ulab aytdi, Otabekka buni ich-ichidan tan oldirdi. Ya’ni Kumushning so‘z o‘yini shunchaki quvlik emas, aniq maqsad yo‘lidagi navbatdagi dadil qadam deyish mumkin. Kundoshlarning o‘n besh kun davomidagi zimdan raqobatiyu qochirimlarini qo‘ya turaylik, Toshkentga kelishining o‘n oltinchi kuni o‘zaro munosabatlarni oydinlashtirib olish uchun Zaynabning uyiga kirib borgan, ya’ni ochiqchasiga kurash maydoniga chiqqan ham Kumush bo‘ladi. Zero, bu xatti-harakatlarning bari o‘sha – “*eshikingizda o‘rinlashib olsam, uyog‘ini o‘zim bilar edim”* degan gapi zamiridagi qarorga muvofiq sodir etilmoqda, zero, birinchi kuniyoq Otabek to‘g‘ri fahmlagan: Kumush endi *“ikki yil burung‘i Kumush emas...”* Xullas, o‘sha o‘n oltinchi kun Kumush dadil hujumga o‘tib, “*uch-to‘rt kun qayin ota, qayin onalarimni ko‘rib ketish uchungina kelgan*” kundoshini sig‘dirmayotgan Zaynabni tavbasiga tayantirayozgan bir payt tuyqus zarba yeb qoldi. Zaynabning “*dovdirash holatida ilhom ravishda to‘qib yuborilgan*” ва hatto “*o‘zi aslo ishonmag‘an*” yolg‘onlari qilichini sindirdi uning. Shu lahzagacha uning dadilligi “Otabek meniki” degan ishonchga suyangan bo‘lsa, endi qarshisidagi “Otabek meniki” deb turibdi, axir. O‘lganning ustiga tepgan qabilidan Zaynab kundashko‘rsinga o‘xshatib o‘ynab bergan “baxtli xotin” sahnasi Kumushning qat’iyatini kuchaytirdi, xolos. Ya’ni Kumush Toshkentga kelmasidanoq qat’iy qarorga kelib bo‘lgan, sanalgan holatlar faqatgina uni qarorida sobit etish-u voqealar rivojini tezlatishga xizmat qiladi. Aytmoqchimizki, shu kuniyoq Otabekka yog‘dirgani ginayu iddaolar ortidan qat’iy qilib “*quvlanishg‘a kim sazovor*?” degan savolni ko‘ndalang qo‘ygani haligina Zaynab to‘qigan yolg‘onlardan xafalik tufayligina emas, yo‘q, bu – uning o‘sha maktubida aytgani, ikir-chikirlari o‘zigagina ma’lum bo‘lgan “*uyog‘i”.* Kumush Toshkentga shu masalani uzil-kesil hal qilish – Zaynabni oradan ko‘tarish maqsadini diliga tugib kelgan va shu yo‘lda og‘ishmay harakat qiladi.

Shu o‘rinda “O‘tkan kunlar” strukturasida muhim o‘rin tutuvchi yana bir personaj – Xushro‘yga to‘xtalib o‘tish zarurati yuzaga keladi. Uning asar strukturasidagi o‘rni Kumush bilan o‘xshatish-zidlash munosabatida ekani bilan belgilanadi. Avvalo, Xushro‘y asar strukturasida Kumushga nisbatan “egizak” maqomida turishini qayd etmoq kerak. Ma’lumki, rus va Yevropa nasrchilik an’anasida asarga qahramon obrazini yorqinroq ochib berish uchun kiritilgan personaj “egiz” (dvoynik) deb ataladi. To‘g‘ri, yuzakiroq qaralsa, eng avval ushbu personajning Zaynab bilan munosabati (muallif ta’rifida qiyos obyekti bo‘lgani) va syujet rivojiga ta’siri (singlisining “ko‘zini ochib”, qotillikka yo‘naltirishi) ko‘zga tashlanadi. Holbuki, “egizak” o‘laroq u o‘zida Kumush xatti-harakatlarining mohiyatini ham aks ettiradi. Faqat, buni ilg‘amoq uchun yuqorida aytganimiz o‘xshatish-zidlash qolipida fikrlash kerak bo‘ladi. Avval, Xushro‘yni Kumush bilan yaqinlashtiradigan nuqtalarga diqqat qilamiz: “...Xushro‘yning Nusratbek bilan chodirda qilg‘an birinchi muomalasidan **til biriktirib erga tekkani** (1) xotinlarg‘a ma’lum bo‘ladir. Xushro‘y **chodirdan chiqmasdanoq** *choy tashib, xizmat qilib yurgan* ***kundashiga kesatuq bilan hujum boshlaydir*** (2). *Ikkinchi va uchunchi kunlarda to‘ppa-to‘g‘ri kundash ustiga sapchiydir. Hafta, o‘n kun o‘tmasdan* ***erini o‘z tomonig‘a og‘ishdirib*** (3) *kundashi yonig‘a kirgizmayoq qo‘yadir. Ikkinchi va uchunchi haftalarda o‘choqboshini o‘z qo‘lig‘a olib kundashini ikkita yosh bolasi bilan tomoq vajidan ham siqa boshlaydir”.* Qiyoslang:

ikkalasi ham “suyub” turmushga chiqqan (1), farqi – Kumushbibi kimga ekanini bilmagani holda uzatilgan, Xushro‘y esa aniq bilib, chertib-chertib tanlab turmushga chiqqan;

ikkalasi ham kundoshi tinchgina yashab turgan xonadonga kirib kelgan va hali kelmasidanoq o‘z oldiga raqibini siqib chiqarish (2) maqsadini qo‘ygan;

nihoyat, Xushro‘y erini “og‘ishdirib” olgan bo‘lsa, Kumush O‘zbek oyimni o‘ziga og‘dirib olgan.

Nihoyat, xuddi Xushro‘y singari Kumush ham Zaynabga qarshi urushida erini “jim ittifoqchi”siga aylantirib olganki, muhimligi vajhidan bu nuqtaga alohida to‘xtalish zarur. O‘sha o‘n oltinchi kun Kumushning ginalari ortidan ko‘ndalang qo‘yilgan savoliga ikki o‘t – muhabbat va adolat orasida talosh bo‘lib turgan Otabek dangal javob berolmasa ham:

*“– Maqsadingizga* (Zaynabni quvish – D.Q.) *yaxshi tushunaman, – dedi oxirda, – har jihatdan qaralg‘anda ham siz bu to‘g‘rida* (Zaynabni haydash masalasida – D.Q.) *haqlisiz. Ammo o‘shang‘acha* (haydashga imkon, asosli vaj-korson tug‘ilgunicha

– D.Q.)*... balki buni o‘zingiz his etarsiz, deb o‘ylayman...*

*Kumush indamay qo‘ydi. Ehtimolki, ul keyingi masala to‘g‘risida erining fikrini bilib qo‘ymoqchi edi...*” [1. B. 346] Otabekning “*o‘shangacha... balki buni o‘zingiz his etarsiz*” degani haqiqatda “axir, tushunasiz, dabdurustdan quvib yuborolmayman, bir muddat sabr qiling, shunga sharoit tug‘iladi” degani, ya’ni Kumush bilan Otabek orasida “ittifoq tuzildi” deganidir. Zero, Otabek bungacha ham Zaynabga nisbatan adolatsizlik bo‘layotgani bois ezilib, “*keliningizga jabrni xohlamasangiz mendan taloq qildiringiz va bir bechoraga bu yo‘sun azob berib yurmangiz!*” deya onasidan izn so‘rab yurgan. Uni o‘rtagan aybdorlik hissi Kumushning Toshkentga kelayotganini eshitgan Zaynab “*yurak dardini ko‘z yoshlari ichida ochib bergach*” chandon kuchaydi. Va adib to‘g‘ri ta’kidlaganidek, “*mana shu keyingisi Otabekni siqib tashlag‘an edi. Bu dard ayniqsa Otabekka uch yildan beri sinashta, ul bu dardning achchig‘-chuchugini uch yil bo‘yi totib kelar va shuning uchun ham boyag‘i og‘irliqni o‘z ustiga olmoqqa majbur edi...*” Xuddi shu vaziyatda Kumush unga o‘zining “haqli” talabini qo‘yayotirki, Otabekning yuqoridagicha andishalarga borishi, Zaynabni imkon qadar ehtiyotlab, ayabroq javobini bermoqchi bo‘lishi tabiiy. Kumushning uyiga qaytishga otlanayotgan onasiga aytgan gaplari ham Zaynabni ketkazish haqida Otabek bilan kelishib olganiga dalolat qiladi: “*Agar Zaynab manga kundashlik qilabersa, kuyavingiz uning javobini bermakchi... Shuning uchun ham manim bu yerda qolishim ma’qul*” [1. B. 349 ]. Ya’ni Kumush Otabek bilan gapni bir joyga qo‘yib bo‘lgan, shuning uchun ham Toshkentda qolish qarorida qat’iy, onasining hech bir vajini qabul qilmaydi.

Xushro‘yning fe’l-xo‘yi va gap-so‘zlari, muxtasargina hikoya qilingan qilmishlarida vahshiyga xos tabiati yaqqol seziladi. Xususan, kundoshiga qilgan zulmida vahshiyga xos o‘ljasini batamom yo‘q qilishga qaratilgan yovuz qat’iyat, qilayottgan ishidan huzurlanish bor. Shunga o‘xshash, Kumushda ham amallarida izchillik, qat’iyat va – aksar insonlarga ham xos ojizlik – raqibini ezishdan huzurlanish bor, faqat uning Xushro‘ydan o‘ta muhim bir farqi – tabiatida yovuzlik yo‘q. Kumush onasiga maktubida: “*Zaynab bilan janjallashishning o‘zi bir huzur va janjaldan bo‘shalg‘ach, qayin otamning qarshisig‘a o‘lturib nasihat eshitish undan ham yaxshi huzur...*” [1. B. 367] deb yozadiki, uning kundoshi bilan janjaliga biroz o‘yinqaroqlik bilan, yengil qarashi shundan. Marg‘ilonga jo‘nash oldidagi Oftob oyimning “*kundash bilan hazil o‘ynama, qizim”, “ming qilg‘anda ham, sen chin kundash bo‘lolmaysan”* deya zorillashi, eng avval, Kumushning tabiatini yaxshi bilganidan – qizi yoshlik qilib holatni to‘g‘ri baholay olmayotgani xavotirini oshiradi. Xavotiri o‘rinli ham: Kumush Zaynabni jiddiy raqib o‘rnida ko‘rmaydi, undan o‘zini har jihatdan ustun sanagani, hammani o‘zi tomonda deb bilgani sabab halitdan o‘zining g‘olib kelishiga beshak ishonib qolgan – g‘aflatda qolish ehtimoli katta. Asarda mudhish yakungacha kechgan kundoshlar orasidagi mojarolar juda qisqa bayon qilinsa-da, tafsilotlar fojianing yetilish jarayonini tasavvur qilish uchun yetarli. Jumladan, shu maktubida Kumush: *“biz ikav agar qo‘yib bersalar go‘yo bir-birimizni yeb-ichmakchi edik... U kunlardagi holimdan o‘zimga endi hisob berishka ham uyalaman...”* deya iqror qiladi. Albatta, o‘zining ham aybdorligini tan olib turgani yaxshi, biroq onasiga buni yumshatibroq, “hazmbop” bir ko‘rinishda taqdim etayotgani ham yaqqol sezilib turadi. Haqiqiy holat esa uning mana bu gaplaridan ochiqroq anglashiladi: *“bu it-mushuklikdan biz zerikmasak-da, kuyavingizning jonidan to‘ydirayozdiq. Mundan bir muncha ilgari ul biz ikki kundashning yuzimizga: “Agar shu holda davom etabersalaring, ikavlaringga ham barobar javob berib qutilaman!” dedi. Uning bu tahdidi ikkimizga emas, balki bittamizgagina xos edi. Men bu tahdiddan albatta qo‘rqmadim, ammo “Zaynab tushunib qolmasa yaxshi edi”, deb qo‘rqdim.*

*Darvoqi’ natija men qo‘rqqancha bo‘ldi. Zaynab bu tahdiddan so‘ng onasining uyiga arazlagannamo ketib qoldi. Ulardan ham yaxshig‘ina dakki yegan bo‘lsa kerak, bir necha kundan so‘ng yovoshqina bo‘lib qaytib keldi. Endi shu voqi’aga ikki oy chamasi vaqt o‘tdi va lekin oramizdan janjal chiqmadi. Men jo‘rttaga ba’zi gaplarni teskarilikka olib ko‘rsam ham ul churq etmaydir. Uning bu holi ersa manim uchun yaxshi emas, ul yana ko‘b vaqt bizning oramizda tikan bo‘lmoqchi*...” [1. B. 368] E’tibor bering, kundoshlar janjalida tashabbus tamomila Kumush tomoniga o‘tgan – “*jo‘rttaga ba’zi gaplarni teskarilikka olib ko‘radi”,* janjal chiqarmoqchi bo‘ladi. Zaynab esa jim, “*churq etmay*” ichiga yutishga majbur, chunki Xushro‘y “*ko‘zini ochib qo‘ygan*”, erining uni *“taloq qilish uchun ko‘zi qiyishi”*ni aniq biladi. Tamsil etsak, mushukning qochib qutulish imkoni qolmagan sichqonni o‘yin qilayotganini tasavvur qiling: baroqvoy bechora sichqonni har ko‘yga solib huzur qilayotir, sizu bizga – zavq beruvchi tayyor tomosha, sichqonning yamlamay yutilganini sezmay ham qolamiz! Endi, masalan, ekranda yo‘lbars quvib yetgan kiyikni ko‘ryapsiz: jon halfida o‘zini har tomon uradi sho‘rlik... vahshiyning bir zarbi uni burda-burda qilib yuborgan kabi... – zavq olasizmi? Yo‘q, ichingiz muzlab, seskanib ketasiz. Holbuki, mohiyatiga qaralsa, ikkisi bir narsa emasmi?!..

Ha, Abdulla Qodiriy shunday hayotiy holatlarni yaratadiki, ularni mushohada qila boshlaboq beixtiyor

mohiyatiga nazar solasiz – nimadir yangi narsalarni anglab qolasiz-da, avvallari bu haqda yuzaki o‘ylaganingiz-u biryoqlama hukm-xulosalar chiqarganingiz uchun xijolat torta boshlaysiz. Shu vaqtda bir muddatgina to‘xtalib, o‘ylovlaringizning o‘zini mushohada qilib ko‘ring-a: allaqachon asar hududidan chiqib, umuman hayot haqida, inson haqida, insonlararo munosabatlar haqida, xullas – olamu odam mohiyati haqida o‘ylayotgan bo‘lasiz: o‘zingiz ham sezmagan holda binoyidek faylasuf bo‘lib qolgandeksiz – hayron bo‘lasiz. Aslo hayron bo‘lmang, bu tabiiy hol – ongingiz adib obrazlarda mujassam etgan hayot haqidagi chuqur o‘ylovlarni qayta yaratdi, xolos – Abdulla Qodiriy falsafasiga oshno bo‘ldingiz.

**Adabiyotlar:**

1. *Qodiriy A*. O‘tkan kunlar. – Tashkent: Sharq, 2004. – 365 b.
2. *Сотти Ҳусайн*. “Ўткан кунлар” ҳам ўткан кунлар / Қодирий А. Обид кетмон. – Тошкент: Info Gapital Group, 2017. – Б. 321–438.
3. *Сулаймон А.* Ҳукумат қурултойи. // Бухоро ахбори, 1921 йил 10 июль. – №44.
4. *Карим К*. Теваракдан шом азони эшитиладир (Роман ичидаги замон). [Internet manba]. URL: https://adabiyot.islamonline.uz/adabiyotshunoslik/666-maqola.html (Murojaat etilgan sana: 20.12.2023)
5. *Қодирий А*. Диёр бакир. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 458 б.
6. *Норматов У*. Қодирий мўъжизаси. – Тошкент: Ўзбекистон, 2010. – 272 б.
7. *Қодирий А*. Суддаги нутқ // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 1989 йил 1 декабрь.
8. *Норматов У*. Қодирийни қўмсаб. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1994. – 76 б.
9. *Норматов У. Қодирий боғи*. – *Тошкент*: Ёзувчи, 1995. – 220 б.
10. *Qodiriy A*. O‘tkan kunlar. – Toshkent: Sharq, 2004. – 384 b.

# ABDULLA QADIRI’S PHILOSOPHY
## (the third article)

**Dilmurod H. Kuronov[1]**

*Ilmiy xabarnoma. Seriya: Gumanitar tadqiqotlar – Scientific Bulletin. Series: Humanitarian Studies.* 2024. 5(81). 53-59.
[1]Andijan State University, Andijan, 170100, str. University, 129 (Uzbekistan). E-mail: agsu_info@edu.uz

**Key words:** compositional thinking, contrast method, opposition, comparison, addition.

The article focuses on the interpretation of the clash of personal interests, which plays an important role in expressing the artistic philosophy of “Bygone Days”. This problem is interpreted on the basis of a number of images, episodes and plot motifs that enter into relationships of analogy-contradiction, complementation or clarification. The fact that personal interests should not be prioritized over the interests of other individuals or the general interest (at the same time, the general interest should not negate the interests of the individual), and that existing conflicts should be resolved rationally through compromise is revealed against the background of the conflicts Yusufbek Hoji - Azizbek, as well as “Otabek - Homid”, “Kumush - Zaynab”, “Khusroy - Kundoshi”.

It is necessary to dwell on another character who occupies an important place in the structure of “Bygone Days” - Khushroi. His place in the structure of the work is determined by the fact that he is in a relationship of comparison and contrast with Kumush. First of all, it should be noted that Khushroi occupies a “twin” position in the structure of the work in relation to Kumush.

As is known, in the Russian and European prose tradition, a character introduced into a work to more vividly reveal the image of the hero is called a “twin” (double). True, if you look at it more superficially, first of all, this character’s relationship with Zaynab (who is described by the author as an object of comparison)

and his influence on the development of the plot (his "opening his eyes" to his sister and directing her to murder) become noticeable. However, as a "twin", he also reflects the essence of Kumuş's actions. However, to understand this, we need to think in the analogy-contrast model that we mentioned above.

Khushruy's behavior, words, and briefly narrated actions clearly reveal his savage nature. In particular, in his oppression of his fellow man, there is a savage determination to completely destroy his prey, a delight in what he is doing. Similarly, in Kumush, there is consistency, determination, and - a weakness inherent in most people - a delight in crushing his opponent, but he has one very important difference from Khushruy - there is no evil in his nature.

Abdulla Qodiriy creates such life situations that, as soon as you start observing them, you involuntarily look into their essence - you realize something new, but you begin to feel embarrassed because you thought about it superficially and made one-sided judgments. At this point, stop for a while and observe your thoughts: you have already left the territory of the work and are thinking about life in general, about man, about interpersonal relationships, in short, about the essence of the world and man: you seem to have become a philosopher without even realizing it - you will be surprised.

Don't be surprised, this is a natural phenomenon - your mind has recreated the deep thoughts about life embodied in the literary images, you have just become familiar with the philosophy of Abdulla Qodiriy.

## References:

1. Kadiri, A. (2004) O'tkan kunlar [Gone days]. Tashkent: Sharq.
2. Sotti Husayn. (2017) "O'tkan kunlar" ham o'tkan kunlar ["The past days" are also the past days]. In: Qodiriy A. Obid ketmon [Obid is a hoe]. Tashkent: Info Gapital Group. Pp. 321-438.
3. Sulaymon, A. (1921) Hukumat qurultoyi [Government congress]. *Buxoro axbori.* July 10. No 44.
4. Karim, B. Tevarakdan shom azoni eshitiladir [The evening call to prayer is heard from Tewarak]. [Online]. URL: https://adabiyot.islamonline.uz/ adabiyotshunoslik/666-maqola.html (Date of Access: 20.12.2023)
5. Kadiri, A. (2007) *Diyor bakir* [Diyarbakir]. Tashkent: Yangi asr avlodi.
6. Normatov, U. (2010) Qodiriy mo'jizasi [Qadiri's miracle]. Tashkent: O'zbekiston.
7. Kadiri, A. (1989) Suddagi nutq [Speech in court]. *O'zbekiston adabiyoti va san'ati*. December 1.
8. Normatov, U. (1994) *Qodiriyni qo'msab* [Missing Qadiriy]. Tashkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
9. Normatov, U. (1995). *Qodiriy bog'i* [Qodiri's park]. Tashkent: Yozuvchi.
10. Kadiri, A. (2004) *O'tkan kunlar* [Gone days]. Tashkent: Sharq.

*Muallif haqida ma'lumot:*
**QURONOV Dilmurod Haydaraliyevich** – filologiya fanlari doktori, Andijon davlat universiteti O'zbek adabiyotshunosligi kafedrasi professori. E-mail: kuronov@rambler.ru